

## TILAK JO'RA SHE'RLARI TAHLILI ("OLAM OSTONASI" SHE'RIY TO'PLAMI ASOSIDA)

Saida Rasulova

SamDU Filologiya fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7317561>

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada shoir Tilak Jo'raning "Olam ostonasi" she'riy to'plamidan o'rin olgan bir nechta she'rlarning kichik tahlillari o'rin olgan.

### Kalit so'zlar:

umr, oqin dunyo, ona niyati, erk, pishiqchilik, baxt.

Tilak Jo'ra she'rlari o'ziga xos ohanglari, ma'noviy qimmati bilan adabiyotimizda muhim o'ringa ega. "Rayhon", "Olam ostonasi", "Yulduzlar tabassumi", "Chorraxadagi uy", "Sanduvoch", "Ruhiyat", "Saraton" to'plamlari shoirning boy ijodiy merosidir. Filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov u haqda gapirarkan, jumladan, shunday deydi: "Bu yigit shunchaki havaskor qalamkash emas, u she'riyatning shaydosi, iste'dodi yarq etib ko'ringan shoir ekani she'rlarining har satridan bilinib turardi. Bug'doyzor dalalar, dehqon terining sarxush qiluvchi hidini ifodalardi bu she'rlar" ("Erta so'ngan yulduzlar", 2004, 128-bet). Darhaqiqat, Tilak Jo'ra she'rlarini o'qir ekanmiz, maftunkor tabiat tasviri ifodalangan satrlar qa'rida falsafiy xulosalar yashiringaniga guvoh bo'lamiz:

Daryoday mavjlanib kechadi umrim,

Balig'i, qayig'i, to'lqini bilan.

Sahroday tashnalab kechadi umrim

Bo'roni, armoni, chaqini bilan.

Men kechib o'tarman oqin dunyoni

Dunyodek rango-rang hislarim bilan.

Ilg'agan bo'lsangiz, shoir qalamiga mansub yuqoridagi misralar orqali lirik qahramon umrining qanday o'tishi tasvirlangan. Uning umri goh "daryoday mavjlanib", gohida esa "sahroday tashnalab" kechmoqda.

Shoir dastlabki satri orqali umrning yaxshi kunlarini ifodalaydi. Bunda o'zi qo'llagan tashbehining ta'sirini kengaytirar ekan, "baliq", "qayiq", "to'lqin"larni ham eslashni unutmaydi. Keyingi misralarda hayotning tashvishli – "sahroday tashnalab" kechgan kunlari ham bor ekanini xotirlatib, o'ziga xos tazod yaratadi. Ta'sirchalikni oshirish uchun "bo'ron", "armon", "chaqin" so'zlari asqatadi.

She'rning keyingi misralari xulosa tarzida kelgan: lirik qahramon tilidan oqin, ya'ni o'tkinchi dunyoni "dunyo kabi rango-rang" – turfaxil hislari bilan kechib

o'tishi aytiladi. Mana shu sanoqli misralardagi ramziylik va falsafiylik o'quvchiga zimdan ta'sir o'tkazmay qolmaydi.

Shoirning sodda ulug'vorlik va o'ziga xos samimiyat ufurib turgan "Ona niyati" she'riga ham e'tibor qaratsak:

Ot choptirib chiqding uyingdan,  
Ot choptirib qaytgin, ilohim!  
Qo'lingdagi jiloving kabi  
Erking bo'lsin o'zingda doim.

Mayli, meni o'ylama, bolam,  
Topganingni sarf qil o'zingga.  
Lek birovga bo'lmagin qaram,  
Nam tegmasin sira tizingga.

Ulg'aytirdim polvonim, deya,  
Toliqqanda darmonim, deya.  
Shamol kabi yelib borasan,  
Olisdagi osmonim, deya.

Osmoningni olib qayt, bolam,  
Qolib ketma osmon vaslida.  
Otang qurgan bu kichik hujra  
Osmondan ham kengdir, aslida.  
Ot choptirib chiqding uyingdan,  
Ot choptirib qaytgin, ilohim!  
Qo'lingdagi jiloving kabi  
Erking bo'lsin o'zingda doim.

Tilak Jo'ra onalarning qanday bo'lishini istasa, o'sha darajadagi onaning tilidan so'zlaydi. U barcha volidalar singari safarga ketayotgan farzandining oy borib, omon kelishini tilaydi. Bu tilakda "ot choptirib" birikmasi chin o'g'lonlarga xos mag'rurlik va yovqurlikni ifodalgan. Ona siymosida gavdalangan lirik qahramon o'g'liga mag'rur ketib, mag'rur qaytishini tilamoqda.

She'rning keyingi misralarida ifoda ta'sirchanligi yanada ortgan. Endi ona farzandidan qo'lidagi otning jilovi kabi erki ham o'zida bo'lishini istaydi. Bu tabiiy, albatta. Chunki erki o'zida bo'lgan farzandlar erki o'zida bo'lgan yurtni yaratishadi! Shuning uchun ham she'rning keyingi bandida bu tilak yanada qat'iy tus olgan: "Lek birovga bo'lmagin qaram".

Har bir ona farzandini “polvonim”, “darmonim”, deb voyaga yetkazadi, dilbandining osmon kabi orzularidan suyunadi: “Shamol kabi yelib borasan, Olisdagi osmonim deya”. Shu bilan birgalikda, jigargo‘shasining o‘z orzulariga erishishini, biroq ota-onasini, Vatanini ham yoddan chiqarmasligini “Qolib ketma osmon vaslida”, deb uqtiradi. Hamda pahlavoniga otasi qurgan kichik hujra, aslida, u intilayotgan osmondan-da kengligini xotirlatgan holda, o‘z maqsadlari tomon intilishini aytadi. Yurtini himoya qila oladigan inson bo‘lishi kerakligini eslatarkan, otasini o‘rnak qilib ko‘rsatadi. She‘r so‘ngida dastlabki to‘rtlik aynan takrorlanib, onaning jigarporsasi uchun tilagan ana shu eng katta istagi juda muhim ekanini urg‘ulaydi.

Tilak Jo‘ra qalamidan aksariyat samimiy va dilga yaqin misralar to‘kilgan. Uning “Pishiqchilik” she‘ridan ham saodat isi kelib turgandek go‘yo. She‘r haqida Najmiddin Komilov: “Mehnat ahlining shukuhi ajib bir jonli lavhalarda tasvir etilgan” (“Erta so‘ngan yulduzlar”, 2004, 131-bet) deb xotirlaydi. Bunda ertangi kunga, kelajakka umid nishonalarini ko‘rishimiz mumkin:

Baxtdan ko‘zlari qamashgan kabi

Ipak ko‘rpalarni iyakka tortib,

Ko‘zlarini xiyol yumib

Yotibdi erkak va ayol,

Baxtdan ko‘zlari qamashgan kabi.

Tashqarida

Tongning elchilari – qushlar

Tinmayin chug‘urlar

U shoxdan bu shoxga qo‘nib,

Tongning elchilari – qushlar

Tinmay chug‘urlar:

Javdari xirmon sha‘niga,

Tip-tiniq osmon sha‘niga,

Xiyol ko‘zlarini yumib yotgan

Shu ikki inson sha‘niga

Qushlar tinmay chug‘urlar.

Erkak va ayolga qo‘shni xonada

Kelajak elchilari – bir etak bolakay

Qushlar kabi chug‘urlar,

Xonaning u burchagidan-bu burchagiga chopqillab,

Jajji qo‘lchalarda burda non

Qushlarday chug‘urlar.

Qo‘lidagi non sha‘niga,

Javdari xirmon sha'niga,  
Tip-tiniq osmon sha'niga,  
Shu ikki inson sha'niga  
Bir etak bolakay qushlarday chug'urlar...  
Tongning elchilari qo'shig'idan,  
Kelajakning elchilari qo'shig'idan  
Mast bo'lib,  
Baxtdan ko'zlari qamashib,  
Ipak ko'rpalarni iyakkacha tortib,  
Xiyol ko'zlarini yumib  
Yotibdi erkak va ayol,  
Baxtdan ko'zlari qamashib...

Pishiqchilik – barcha ekin-tikinning pishib yetilgan vaqti. Bu vaqtda odamlar ertangi kuniga umid qila oladilar, baxtli yashashlariga ishonadilar. Erkak va ayol ko'zlarining xiyol yumuqligiga ularning baxtdan qamashganini sabab qilib ko'rsatadi. Tong elchilari – qushlarning chug'ur-chug'uri go'yoki pishiqchilikni (javdari xirmon), tinchlikni (tip-tiniq osmon) va shu ikki insonni madh etayotgandek.

Qo'shni xonada esa kelajakning egalari bo'lgan bir etak bolakay qushlar kabi chug'urlashmoqda. Ular pishiqchilik sabab (burda non, javdari xirmon), tinchlik sabab (tip-tiniq osmon) va shu ikki inson sabab shod va baxtiyor voyaga yetishmoqda.

Ertangi kundan ko'ngli to'q bo'lgan ikki insonning tong elchilari va kelajak egalari qo'shig'idan mast bo'lib, baxtdan ko'zlari qamashadi-da. Ushbu tasvirlar orqali shoir inson umrining “pishiqchilik” davrini qog'ozga tushirgan deyish ham mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, Tilak Jo'raning sodda va xalqchil satrlari, ularda jo bo'lgan falsafiy fikrlari, ohorli tashbehlari nafaqat shoir ijodi, balki o'zbek adabiyotning ham yutug'idir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhabbat Hamroyeva. (2004) Erta so'ngan yulduzlar. Toshkent: Sharq.
2. Tilak Jo'ra. (2011) Saylanma. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.